

**TOYLOQ TUMAN XALQ TA'LIMI TIZIMIDA TA'LIM SIFATINI  
OSHIRISH HAMDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR BILIM  
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH YUZASIDAN OLIB  
BORILGAN ISHLAR TO'G'RISIDA**

**MA'LUMOT**

Bugungi kunda, tumanimizda **61 ta** ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, (1-sektorda 19 ta, 2-sektorda 16 ta, 3-sektorda 14 ta, 4-sektorda 12 ta ) shundan, **2 ta** maktablar filiali va **1 ta** "Barkamol avlod" bolalar maktabi mavjud.

Tuman xalq ta'lim tizimidagi **38 170 nafar** o'quvchilarga **2822 nafar** pedagog-o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. Pedagog-o'qituvchilarning **160 nafari** (5,7 foiz) oliy toifali, **469 nafari** (16,6 foiz) 1-toifali, **552 nafari** (19,6 foiz) 2-toifali, **1339 nafari** (47,4 foiz), **100 nafari** (3,5 foiz) tugallanmagan oliy, **202 nafari** (7,1 foiz) o'rta-maxsus mutaxassislarni tashkil qiladi.

Tumanda ta'lim sifati va moddiy-texnik holatini yaxshilash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

**I. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish yo'nalishida.**

Tumandagi **59 ta** umumiy o'rta ta'lim maktablariga Samarqand davlat universiteti, **1 ta** maktabga – Samarqand tibbiyot instituti, **1 ta** maktabga – Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti biriktirildi. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan maktablarga amaliy va metodik yordam ko'rsatilmoqda.

**Shuningdek,**

-11-sinf bitiruvchilaridan OTMlarga kirish istagini bildirgan o'quvchilarga mas'ul o'qituvchilarni biriktirish orqali ularni oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlarini oshirish belgilab olindi.

-tumandagi barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida "**Abituriyent shtabi**" tashkil etildi. Maktablardan alohida sinfxona ajratilib, kompyuter, printer bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, barcha oliy ta'lim muassasalari, akademik lisey va tyexnikumlar, o'tgan yillardagi OTMga kirish ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar va test savollari bazasi yaratildi.

-"**Abituriyent shtabi**"ning samarali faoliyat yuritishi uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari shaxsan mas'ul etib belgilandi. "**Abituriyent shtabi**"da ishlash uchun maxsus komissiya tashkil etilib, o'quvchilardan olingan so'rovnomalarni tahlil qilish, olingan diagnostik testlar natijalarini tahlil etish, ota-onalar yig'ilishlarini o'tkazib, natijalar muhokama etilishi belgilandi.

-umumiy o'rta ta'lim maktablarida 11-sinf bitiruvchilaridan olingan so'rovnomalar asosida oliy ta'lim muassasalarining professor o'qituvchilarini jalb etish hamda bitiruvchi sinf o'quvchilarining OTMlarga sayohatlarini tashkil etish yo'lga qo'yildi.

-bitiruvchi sinflarda dars berayotgan o'qituvchilarning darslarini doimiy tahlil qilib borish, **“yashil”** toifali maktablarda olib borilayotgan namunalishlarni ta'lim sifati nisbatan past bo'lgan maktablarda joriy etish ishlari tashkil etildi.

-bitiruvchilar va ularning ota-onalari bilan uchrashuvlar o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Ushbu uchrashuvlarda Davlat test markazi viloyat bo'limi, oliy ta'lim muassasalari vakillari tomonidan Davlat test markazi faoliyati bilan bog'liq eng so'nggi yangiliklar, o'zgarishlar, abituriyentlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va qulayliklar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

-**“Oliy maktab akademiyasi”** va **Davlat test markazi** viloyat bo'limi bilan hamkorlikda bitiruvchi sinf o'quvchilaridan bir necha bor diagnostik testlar olinib, tahlil qilindi.

**Natijada**, maktab bitiruvchilarining oliy ta'limga kirish ko'rsatkichi **22,7 foizga** yetib, (2020 yil 9,3 foiz bo'lgan) birorta ham bitiruvchisi oliy ta'lim muassasasiga kirmagan maktablar qolmadi.

Maktab bitiruvchilarining **18 nafari** muddatidan oldin nufuzli xorijiy (AQSH, Angliya, Xitoy va boshqa) oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan bo'lsa, bitiruvchilarning **22 nafari ILETS va CEFR** xalqaro baholash dasturidan **6,7 ball**dan yuqori ball olib, oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun imtiyozlarni qo'lga kiritishdi.

## **II. Ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o'rta ta'lim maktablarini tashkil etish yo'nalishida.**

O'tgan o'quv yilida **3 ta** ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o'rta ta'lim maktablari tashkil qilinib, ularning soni **4** taga yetkazildi.

Jumladan,

**-26- maktab ingliz tili faniga;**

**-57-maktab matematika va fizika fanlariga;**

**-30-maktab kimyo va biologiya fanlariga;**

**-15-maktab informatika va axborot texnologiyalari fanlari** yo'nalishlariga ixtisoslashtirildi.

Jami 359 nafar 4-sinf o'quvchilari **my.maktab.uz** sayti orqali ixtisoslashtirilgan sinflarda o'qishini davom ettirish maqsadida onlayn ro'yxatdan o'tkazildi. Test sinovlari natijalariga ko'ra, 15-IDUMga 30 nafar, 26-IDUMga 30 nafar, 30-IDUMga 30 nafar va 57-IDUMga 60 nafar iqtidorli o'quvchilar saralab olindi.

## **III. O'quvchilar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olish, maktablarda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yaxshilash, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish hamda 5 ta muhim tashabbus yo'nalishida:**

2022 yilda o'quvchilar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, maktablarda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yaxshilash maqsadida manzilli choralar belgilangan.

Jumladan,

-mahalladagi yoshlar yetakchisi va umumiy oʻrta taʼlim maktablari direktorlari oʻrtasida hamkorlik yoʻlga qoʻyilib, har kuni soat **16:00** dan **24:00** ga qadar dars mashgʻulotlari tugagandan soʻng kutubxona, sport zal, kompyuter xonalari va tadbirlar zali doimiy ishlashi taʼminlanib, maktablar mahalla uchun **“Maʼnaviyat maskani”**ga aylantirildi va tumandagi barcha maktablarda mahalla yoshlari uchun shart-sharoitlar yaratib berildi.

-farzand tarbiyasi borasida ota-onalar ayniqsa otalar masʼuliyatini oshirish maqsadida har chorak yakunida umumiy oʻrta taʼlim maktablarida tizimli ravishda **“Otalar yigʻilishi”**ni oʻtkazish joriy qilindi. Shu jumladan tumanda jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish borasida turli xil maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar barcha taʼlim muassasalarida muntazam tashkil etilmoqda.

-umumiy oʻrta taʼlim maktablarida tashkil etiladigan maʼnaviy-maʼrifiy ishlarning samaradorligi **7 ta** indikatorlar yordamida baholanib, har 6 oyda reytingi belgilandi va **“qizil”**, **“sariq”**, **“yashil”** toifalarga ajratildi.

-tumandagi **1 ta** Bolalar va oʻsmirlar sport maktabi oʻziga yaqin boʻlgan hududdagi **24 ta** maktablarga birlashtirilib, **14 turdagi** sport toʻgaraklari tashkil etildi va ularga **1392 nafar** oʻquvchilar qamrab olindi.

-oʻquvchilarning qiziqishlariga qarab tumandagi maktablarda **58 ta** baxshichilik, maqom, estrada, teatr, rassomchilik, badiiy havaskorlik yoʻnalishlarida toʻgaraklar tashkil etilib, ularga **604 nafar** oʻquvchilar qamrab olindi.

-oʻtgan oʻquv yilida maktablarda **61 ta** toʻgaraklar tashkil etilib, ularga **28 264 nafar (73,6 foiz)** oʻquvchilar jalb etildi.

-mahalliy byudjet mablagʻlari hisobidan 5 ta muhim tashabbus toʻgaraklari uchun zarur boʻlgan jami **217 mln. soʻm** mablagʻ evaziga **100 mln. soʻmlik** 4 turdagi **sport jihozlari, 117 mln. soʻmlik** 3 turdagi **musiqa asboblari** sotib olindi.

**Birinchi tashabbus** – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va sanʼatning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish boʻyicha umumiy oʻrta taʼlim maktablarida **517 ta** toʻgaraklar tashkil etilib, **8 724 nafar** oʻquvchilar qamrab olindi.

**Ikkinchi tashabbus** – yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasida oʻz qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish boʻyicha umumiy oʻrta taʼlim va sport maktablarida **169 ta** sport toʻgaraklari tashkil etilib, ularga **3 530** nafardan ortiq oʻquvchi-yoshlar jalb etildi.

**Uchinchi tashabbus**–aholi va yoshlar oʻrtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish masalalari boʻyicha tumandagi 61 ta umumiy oʻrta taʼlim maktablarda optik tolali internet aloqasi tizimiga ulandi va ushbu taʼlim muassasalarida internet tizimi yaxshilandi. Informatika va axborot texnologiyalari oʻqituvchilari

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazida 3 yo'nalish bo'yicha malakalarini oshirish bo'yicha ishlar amalga oshirilib borilmoqda.

Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'lim maktablarida **IT** yo'nalishida **74 ta** to'garaklar tashkil etilib, **1 275 nafar** o'quvchilar qamrab olindi.

**“Bir million dasturchi”** loyihasi doirasida o'quvchilarni qamrab olish va ularning sonini ko'paytirish bo'yicha tizimli ravishda amaliy ishlar bajarilmoqda.

**To'rtinchi tashabbus–aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalalari bo'yicha** bugungi kunda viloyatdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida jami **37 ming 746 dona** badiiy adabiyotlar mavjud bo'lib, shundan **1 400 donasini** elektron adabiyotlar tashkil etadi. Kitobxonlik yo'nalishiga umumiy o'rta ta'lim maktablarining **27 655 nafar** o'quvchilar jalb etilgan.

Tumandagi idora, tashkilot va muassasalari rahbarlari hamda deputatlar tomonidan o'zlari o'qigan ta'lim muassasalariga kitoblar sovg'a qilish aksiyasi davom ettirilib, ushbu aksiya doirasida **200 nomdagi 3198 dona** badiiy adabiyotlar sovg'a qilindi.

Shuningdek, viloyat hokimi tashabbusi bilan **6 148 dona (104 mln. so'mlik)** badiiy adabiyotlar xarid qilinib, tuman maktablari kutubxonalariga kirim qilindi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida **262 ta** kitobxonlik klublari tashkil qilinib, ularga **5 702 nafar** o'quvchilar qamrab olindi.

**Beshinchi tashabbus xotin–qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari bo'yicha** o'quvchi-qizlarni kasb-hunar egallashiga qiziqtirishni yanada kuchaytirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarida **126 ta** to'garaklarga hamda **1 ta** “Barkamol avlod” bolalar maktablarida tikish-bichish va to'qish yo'nalishlari bo'yicha **8 ta** to'garaklarga jami **3 264 nafar** o'quvchi –qizlar jalb qilindi.

#### **IV. “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish bo'yicha:**

2021 yilning 2 noyabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida **“Yashil makon”** umummilliy loyihasini amalga oshirish, mazkur loyiha doirasida tumandagi barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalariga kuzgi va baxorgi mavsumlarda bajarilish uchun zarur chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan chora-tadbir asosida tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi ta'lim muassasalarida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ta'lim muassasalarida xalqimizning qadimiy an'analari va urf-odatlariga binoan jami **12 000** tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.

#### **V. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha:**

Tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli umumiy o'rta ta'lim maktablarida Samarqand davlat universiteti akademik liseyi va Samarqand davlat iqtisodiyot va servis instituti akademik liseyi mas'ul xodimlari ishtirokida uchrashuvlar tashkil qilindi. Unda amaliyotchi psixologlar ishtirok etishdi. O'quvchilar akademik liseylar faoliyati va yaratilayotgan imkoniyatlar va qulayliklar

to'g'risida tushunchalarga ega bo'ldilar.

Tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologlari uchun stress boshqaruvi ko'nikmalarini shakllantirish, jamoada pedagoglarning psixik salomatligini saqlash va mustahkamlash, kasbiy stress, emosional so'nish holatlari profilaktikasi va korreksiyasiga qaratilgan seminar-treninglar o'tkazilib borilmoqda.

Tuman Xalq ta'limi tizimidagi o'quvchi va pedagoglarning hayotiy hamda psixologik bilim-ko'nikmalarini oshirish, o'quvchi-yoshlar o'rtasida zo'ravonlik, bezorilik, o'z joniga qasd qilishning oldini olish hamda voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olish sohasida ularning ota-onalariga o'z vaqtida har tomonlama psixologik va pedagogik yordam ko'rsatish bo'yicha amaliyotchi psixologlarning savodxonligi oshirilmoqda.

Joriy o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilari o'z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, mehnat bozorida munosib o'rnini topishi, kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun **“Kasbga yo'naltirish tizimi”** faoliyati boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15-16 aprely kunlari Samarqand viloyatiga tashrifi munosabati bilan viloyat faollari ishtirokida o'tkazilgan 20-son yig'ilish bayonining **“O'quvchilarda maktab davridanoq mehnat qilish ko'nikmalarini yaratish”**ga bag'ishlangan 116-son bandi ijrosi yuzasidan tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi **5-, 26-, 34-, 38-**umumiy o'rta ta'lim maktablarida keng ko'lamli ishlar olib borildi. Jumladan,

Samarqand Davlat Universiteti agrotexnologiya fakul'teti professor o'qituvchilari hamda viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tabiiy fanlar metodistlari tomonidan o'qituvchilarga **“Tomorqada ishlashni o'rganamiz”** nomli uslubiy qo'llanmalar tarqatildi.

Tumandagi **26-, 34-** va **38-**umumiy o'rta ta'lim maktablarida ushbu tajribani viloyat miqyosida amalga oshirishga doir **“O'quvchilarning maktab davridanoq mehnat qilish ko'nikmalarini yaratish maqsadida 2021-2022 o'quv yilidan boshlab Toyloq tumanidagi maktablarning bo'sh turgan yer maydonidan unumli foydalanib, tajriba-sinov tariqasida ularni dehqonchilikka qiziqtirish”** mavzusida amaliy seminarlar bo'lib o'tdi.

## **VI. Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bo'yicha:**

Tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilarining bilim saviyasini yanada oshirish, innovasion, interfaol raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda ta'lim sifatini oshirish maqsadida **“Ustozlar belashuvi”** barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarda o'tkazilib borildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan jami **2 822** nafar pedagog xodimlardan **2 795** nafari (99%) ishtirok etishdi.

Tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 2022 yil 25 mart-18 aprel kunlarida o'tkaziladigan pedagog-kadrlar attestasiyasi jarayoniga jami **2 822** nafar pedagog kadrlardan

**1 740 (69%)** nafar pedagoglar ariza topshirishdi.

Ulardan **510 (29.3%)** nafari navbatdagi majburiy, **1231 (70.7%)** nafari navbatdan tashqari malaka toifasiga o'tish uchun hujjat topshirishgan.

Shundan **368 (21.1%)** nafari oliy toifaga, **461 (26.4%)** nafari birinchi toifaga, **895 (51.4%)** nafar pedagoglar ikkinchi toifaga da'vogar sifatida ariza topshirishgan. Ushbu pedagog xodimlarning attestasiyaga qatnashib, yuqori natijalarini qo'lga kiritishlari uchun barcha uslubiy yordam ko'rsatildi.

2022 yil 4 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun **“Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab”** tanlovining birinchi (tuman) bosqichi o'tkazildi. Tanlovda tumandagi 61 ta maktablardan **300** nafar o'quvchilar ishtirok etishdi.

Tanlov natijalariga ko'ra, 34-maktab jamoasi 46,46 ball bilan 1-o'rinni, 8-maktab jamoasi 44,06 ball bilan 2-o'rinni hamda 21-maktab jamoasi 41,88 ball bilan 3-o'rinni egalladi. Shu munosabat bilan 1-o'rin 100, 2- o'rin-75 va 3-o'rin-**50 mln.** so'm pul mablag'lari bilan mahalliy hokimlik hisobidan moddiy rag'batlantirildi.

Joriy yilning yanvarъ oyida xalq ta'limi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining faoliyat samaradorligini oshirish, ularda faoliyat yurituvchi pedagoglar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, o'quvchi-yoshlarning ta'lim va tarbiya sifatini mustahkamlash, ularni jismoniy chiniqtirish, sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilish maqsadida Toyloq va Jomboy tuman hokimlarining o'zaro hamkorlik bo'yicha **memorandumi** imzolandi. Mazkur memorandum ijrosini ta'minlash hamda tajriba almashish maqsadida tuman xalq ta'limi bo'limining tegishli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Ushbu memorandum ijrosi yuzasidan **“Yosh matematiklar”**, **“Yosh tarixchilar”**, **“AKT bilimdonlari”**, **“Bir million o'zbek dasturchisi”**, **“Eng yaxshi dars ishlanmasi”**, **“Zamonaviy shaxsni tarbiyalashda maktab amaliyotchi psixologlarining o'rni”** mavzularida tanlovlar, shuningdek, **“Pedagoglar o'rtasida futbol, voleybol, basketbol, shaxmat-shashka”** sport musobaqalari o'tkazildi.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi **“Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 997-sonli qarori** ijrosi yuzasidan 2022-yilning aprel-may oylarida **PISA** xalqaro tadqiqotlariga o'tkazilishi munosabati bilan tumandagi umumiy o'rta ta'lim maktablaridan tanlab olingan 7-umumiy o'rta ta'lim maktabining **30** nafar o'quvchilarini xalqaro tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish uchun chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Chora-tadbirlar rejasiga asosan tadqiqotda qatnashadigan o'quvchilarni o'qish savodxonligi, aniq va tabiiy fanlar yo'nalishida bilimni mustahkamlash uchun boshqa umumiy o'rta ta'lim maktablaridan trener o'qituvchilar birlashtirildi.

Ushbu o'qituvchilar orqali **PISA-2022** tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha o'quvchilarning o'qish, aniq va tabiiy fanlardan savodxonligini oshirish yuzasidan **PISA** savollari asosida mashq daftarlari bilan ishlash

ko'nikmalarini shakllantirish hamda **STESTING.UZ** platformasiga kirib fanlar yo'nalishida onlayn test ishlash ko'nikmalari shakllantirildi.

Maktablarda fanlarni rivojlantirish uchun o'qituvchilar o'rtasida **EasyQuiz** va **MyTest** dasturlarida tuzilgan testlar orqali o'qituvchilar bilimni doimiy ravishda oshirib borish va attestasiya jarayonlariga tayyorgarlik ko'rish, pyedagoglarning metodik kunlarida doimiy ravishda viloyat o'qituvchilarning malakasini oshirish hududiy markazi va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi.

## **VII. Raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha:**

Tumandagi umumiy o'rta ta'lim maktab informatika fani o'qituvchilariga **“Bir million o'zbek dasturchilari”** loyihasining hozirgi kundagi ahamiyati to'g'risida o'quv amaliy seminarlar o'tkazildi.

Maktab o'qituvchi va o'quvchilarining **21 679** nafari ushbu loyihadan ro'yxatdan o'tib, **12 248** nafari bitiruvchi sertifikatlariga ega bo'lishdi.

Ushbu loyiha doirasida bir qancha tanlovlar o'tkazildi, tanlovlarda o'qituvchi va o'quvchilarimiz faol ishtirok etishdi. Joriy yilning 6-7 yanvar kunlari viloyat hokimi tashabbusi bilan **“Bir million o'zbek dasturchilari”** loyihasi doirasida **IT** tanlovining tuman va viloyat bosqichi o'tkazildi.

2021-2030-yillarda Respublika viloyat tuman (shahar)larida informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarni bosqichma-bosqich tashkil etish vazifasi belgilab qo'yilgan. Ushbu topshiriqqa asosan tumandagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi informatika faniga ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o'rta ta'lim maktabi sifatida tashkil etildi.

Maktab direktorlarining AKT savodxonligini oshirish bo'yicha o'quv kurslari tashkillashtirilib, ushbu kurslarda maktab direktorlari o'z faoliyati davomida zarur bo'ladigan ijtimoiy tarmoqlardan hamda office dasturlaridan foydalanishda ko'plab ma'lumotlar berib borilmoqda.

Tuman mahalliy byudjeti orttirilgan mablag'larining **1 mlrd. 470 mln. so'm** mablag' hisobiga 61 ta maktablarda zamonaviy, oxirgi rusumdagi video kuzatuv kameralarini o'rnatish ishlari bajarildi.

## **VIII. Maktablarni moddiy-texnik bazasini yaxshilash va qurilish-ta'mirlash hamda boshqa yo'nalishlarida:**

2021-yilda barcha manbalar hisobidan jami **16 mlrd. 222 mln. 500 ming** so'mlik mablag'lar xalq ta'limi sohasini yaxshilashga yo'naltirildi.

Jumladan, Respublika byudjetidan **10 mlrd. 403 mln. so'm** mablag'lar evaziga **4 ta** maktabda xususan, **Investitsiya dasturi** doirasida **2 mlrd. 356 mln. 800 so'mlik** tumandagi “Nurli yo'l” MFYda joylashgan 17-umumiy o'rta ta'lim maktabining mavjud 240 o'rinli binosi “Best kontinental” xususiy korxonasi tomonidan qiymati **2356,8 mln. so'm** mablag' hisobiga mukammal ta'mirlanib, **210 o'rinli** qo'shimcha bino qurilib, foydalanishga topshirildi.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturi doirasida **3 mlrd. 336 mln.** so‘mlik tumandagi “Navzandak” MFYda joylashgan 27-umumiy o‘rta ta’lim maktabining “Tolib bobo AKT” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan qiymati **2799,5 mln. so‘m** mablag‘ hisobiga qo‘shimcha **240** o‘rinli o‘quv binosi va **12x24** o‘lchamli sport zali va faollar zali hamda “Yastepa” MFYda joylashgan 28-umumiy o‘rta ta’lim maktabini “Ibrohim building stroy” mas’uliyati cheklangan jamiyat tomonidan qiymati **537 mln so‘m** mablag‘ hisobiga mavjud **630** o‘rinli binosida joriy ta’mirlash ishlari bajarilib, foydalanishga topshirildi.

Maktablarda qurilish-ta’mirlash hamda Vazirlar Mahkamasining alohida 2021 yil 3 iyundagi 284-f-sonli farmoyishi doirasida **4 mlrd. 600 mln.**so‘m mablag‘ evaziga tumandagi “G‘o‘lba” MFYda joylashgan 44-umumiy o‘rta ta’lim maktabining **784** o‘rinli binosi “Shohruh qurilish dizayn” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan mukammal ta’mir lanib, foydalanishga topshirildi.

Mahalliy byudjetdan jami **1 mlrd. 354 mln. 900 ming** so‘m mablag‘ ajratilishi hisobiga **17 ta** umumiy o‘rta ta’lim maktablarida joriy ta’mirlash ishlari olib borildi. Jumladan, 19-, 20-, 25-, 33-umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yangi hojatxonalar qurilib, foydalanishga topshirildi.

Shuningdek, 7-, 8-, 10-, 31-, 42- va 45-umumiy o‘rta ta’lim maktablarining hojatxonalari mukammal ta’mir landi, 10-, 23-, 54-, 57-umumiy o‘rta ta’lim maktablarining isitish qozonlari yangisiga almashtirildi.

Viloyat mahalliy byudjeti hisobidan jami **4 mlrd. 228 mln. 900 ming** so‘m mablag‘ evaziga **23 ta** umumiy o‘rta ta’lim maktablarida joriy ta’mirlash ishlari olib borildi. Jumladan, tumandagi yangi tashkil etilgan 58-umumiy o‘rta ta’lim maktabi binosi mukammal ta’mirdan chiqarildi va foydalanishga topshirildi. Shuningdek 18-, 43-, 46-umumiy o‘rta ta’lim maktablariga yangi hojatxonalar qurilib, foydalanishga topshirildi, 2- va 24-umumiy o‘rta ta’lim maktablarining sport zallari mukammal ta’mirdan chiqarildi, 1-, 5-, 11-, 23-, 34-, 39-, 47-, 59-, 60- va 61-umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tashqi yo‘laklariga beton qoplamalari yotqizildi.

**Bo‘lim mudiri:**

**X.Hojiqulov**